



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-noyabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 56,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 99,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (71,2 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 12,5 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 14,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,9 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 45,6 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,9 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,9 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish 4,8 marta oshgan boʻlsa, sheben qazib olish 6,0 % ga, tabiiy gaz 0,5 % ga, gazli kondensat 7,1 %, hamda graviy qazib olish 82,6 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	119,9	573,9	454,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	32 495,8	32 319,2	-176,6
Gaz kondensati, ming t.	741,0	688,7	-52,3
Chaqiq tosh, ming t.	413,4	388,4	-25,0
Shag'al , ming t.	145,4	25,3	-120,1


Ishlab chiqarish sanoati


2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,6 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 71,2 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 7,0 % ni (2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 5,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 23,7 % (23,8 %), o'rta-quyi texnologiyali 31,1 % (30,2 %) va quyi texnologiyali 38,3 % (40,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 32,5 % (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,4 % (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 8,9 % (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,4 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2020-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 314,9 mln. dona butilka (2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 47,0 % ga o'sgan), 8 740,1 ming litr uzum vinosi (28,5 %), 1 241,0 mln. dona tamaki mahsuloti (26,0 %), 22 240,6 ming litr aroq 100 % spirt (28,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	226 514,3	256 733,0	30 218,7
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	17 790,0	21 258,8	3 468,8
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	16 303,2	15 911,3	-391,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	82 130,0	112 995,0	30 865
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	416 595,0	382 557,0	-34 038




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



2019-yil,
% da



2020-yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,5 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 45,6 % ga oshganligi kuzatildi.






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	365,0	299,4	-65,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11 017,6	11 455,9	438,3
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	384 864,0	963 464,0	578 600,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabr	2020-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	84,1	62,2	-21,9
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	375,9	398,0	22,1
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	148,4	138,7	-9,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 5,9 % ga oshdi. Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 6,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 26,0 % ga pasayish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 19,6 trln. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 58,3 % dan 58,6 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 6,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 21,8 % ni shuningdek, Yashnobod tumani 16,2 % ni, Mirobod tumani 10,0 % ni, Chilonzor tumani 9,1 % ni hamda Olmazor 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (115,5 %), Bektemir (108,7 %), Chilonzor tumanlarida (104,8 %) hamda Yashnobod (104,6 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	19 553,7	100,0	98,4
Uchtepa	924,8	4,7	92,6
Bektemir	4 260,8	21,8	108,7
Yunusobod	887,7	4,5	94,7
Mirzo Ulug'bek	1 558,9	8,0	96,5
Mirobod	1 962,8	10,0	115,5
Shayxontohur	1 134,4	5,8	89,7
Olmazor	1 556,5	8,0	90,7
Sirg'ali	1 504,8	7,7	99,1
Yakkasaroy	828,4	4,2	93,6
Yashnobod	3 159,7	16,2	104,6
Chilonzor	1 774,8	9,1	104,8

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 43,7 %, shuningdek, Sirg'ali 11,1 % ni, Yashnobod tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mirzo Ulug'bek (109,3 %), Mirobod (105,2 %), Bektemir (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	6 855,5	100,0	101,5
Uchtepa	454,8	6,6	97,6
Bektemir	2 998,6	43,7	104,5
Yunusobod	265,5	3,9	98,1
Mirzo Ulug'bek	324,8	4,7	109,3
Mirobod	244,7	3,6	105,2
Shayxontohur	210,9	3,1	98,3
Olmazor	532,8	7,8	96,8
Sirg'ali	763,0	11,1	98,3
Yakkasaroy	136,5	2,0	97,0
Yashnobod	565,5	8,2	99,7
Chilonzor	358,6	5,2	96,6

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Mirobod tumaniga to'g'ri kelib, 15,0 % ni, shuningdek, Yashnobod 14,3 % ni, Chilonzor 12,4 % ni, Bektemir 11,0 % ni, Mirzo Ulug'bek 10,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Bektemir (120,1 %), Mirobod (117,1 %), Yashnobod (114,6 %), Chilonzor (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	11 466,0	100,0	102,3
Uchtepa	470,0	4,1	88,1
Bektemir	1 262,2	11,0	120,1
Yunusobod	536,0	4,7	93,8
Mirzo Ulug'bek	1 234,1	10,8	93,6
Mirobod	1 718,2	15,0	117,1
Shayxontohur	820,4	7,2	86,2
Olmazor	1 023,7	8,9	87,8
Sirg'ali	649,1	5,7	99,4
Yakkasaroy	692,0	6,0	93,0
Yashnobod	1 644,1	14,3	114,6
Chilonzor	1 416,2	12,4	107,1



**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-noyabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	56 941,0	99,7
Uchtepa	3 030,1	100,8
Bektemir	5 108,4	100,2
Yunusobod	3 497,0	109,3
Mirzo Ulugʻbek	4 761,9	105,1
Mirobod	6 055,5	81,6
Shayxontohur	3 534,3	99,2
Olmazor	3 656,5	98,9
Sirgʻali	4 978,3	96,6
Yakkasaroy	2 699,8	103,5
Yashnobod	16 313,8	114,2
Chilonzor	3 305,5	101,8



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Mirobod (2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 81,6 %), Sergeli (96,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (115,5 %), Bektemir (108,7 %), Yashnobod (104,6 %) hamda Chilonzor tumanlarida (104,8 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 28,7 %), Mirobod (10,6 %), Bektemir (9,0 %), Sirg'ali (8,7 %) hamda Mirzo Ulug'bek (8,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yakkasaroy (4,7 %) hamda Uchtepa (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-noyabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 20,0 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 72,6 %), Olmazor tumanida (70,8 %), Sirgʻali tumanida (58,0 %), Yakkasaroy (47,6 %), Uchtepa (44,2 %), Yunusobod (40,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (18,2 %), Mirobod (19,5 %) va Shayxontohur (26,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 15,7 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,7 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,4 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (12,0 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,9 %) Sirg'ali tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2020-yilning yanvar-noyabr oylarida shaharda 1 810 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 221 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 12,3 %) Chilonzor tumanida, 222 tasi (12,2 %) Olmazor tumanida, 195 tasi (10,8 %) Mirzo Ulug'bek tumanida, 183 tasi (10,1 %) Sirg'ali tumanida, 177 tasi (9,8 %) Yunusobod tumanida, hamda 174 tasi (9,6 %) Uchtepa tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 153 ta), Chilonzor (1 952 ta), Uchtepa (1 892 ta), Yunusobod (1 716 ta) hamda Shayxontohur (1 411 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 dekabr 2020 yil holatiga)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalar bo'lgan tumanlar
(1 dekabr 2020 yil holatiga)



2020-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (515 ta), Mirobod (905 ta), Yakkasaroy (1 234 ta), Yashnobod (1 254 ta), Mirzo Ulug'bek (1 316 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16